

## O'ZBEK TILIDA SO'Z YASASH USULLARI

*Ahmedova Pokiza Rustamovna*

*Nukus davlat pedagogika inστιuti Turkiy tillar fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolani yozishdan asosiy maqsad, so'z yasalishi va uning turlari, yasalish usullari haqida fikr yuritish. Hozirgi kunda so'z yasalish strukturasi to'liq ekanligiga baho berish. O'quvchilar ongiga so'z yasalish turlari va usullarini yetkazib berish, shakllantirish, o'stirish, shu asosda savodxonlikning talab darajasida bo'lishini, o'zbek tili imkoniyatlardan to'g'ri hamda oqilona foydalanishni ta'minlash masalalari ushbu maqolada yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** so'z yasalishi, so'z yasash qoliplari, unumli va unumsiz qoliplar, yasama so'z, tublashish, qo'shma so'z.

So'z yasalishi tilshunoslikning alohida bo'limidir. U so'z yasalishi, uning diaxron va sinxron turlari, so'z yasash usullari kabi masalalar bilan shug'ullanadi. So'z yasalishi sof nutqiy hodisa, nutqiy jarayondir. Biroq uning lisoniy asoslari bor. Shu sababli so'z yasalishi ham lison va nutqqa birday daxldor bo'ladi. So'z yasalishi lingvistik termin sifatida ikki ma'nolidir: so'z yasash jarayoni atamasi va ushbu jarayonni o'rganuvchi soha. So'z yasash deganda qanday usul bilan bo'lsa-da, yangi so'z hosil qilish tushunilavermaydi. Masalan, so'z yangi ma'no kasb etishi natijasida yangi so'z paydo bo'lishi mumkin. Deylik, ishbilarmon so'zi yangi ma'no kasb etdi. Biroq bu yerda yangi so'z yasalishi yo'q. Demak, so'z yasalishi, yasama va yangi ma'no kasb etgan so'zlarning leksemalashuvi hodisalarini farqlash lozim. So'z yasalishi ham til taraqqiyoti natijasi tarixiylik va zamonaviylikka daxldor bo'ladi. Shu boisdan tarixiy va sinxron so'z yasalishini farqlash lozim. Hozirgi so'z yasalishida yasama so'z bilan derivatsion (so'z yasash) qolip orasida aloqa mavjud bo'lib, qolipning shakily va mazmuniy tomoni hosila so'zda o'z izlarini qoldirgan bo'ladi. So'z yasash yangi ma'noli so'z hosil qilish demakdir. So'z yasalishi lug'aviy ma'noning o'zgarishi asosida vujudga kelib, yasama so'z ko'pincha bir turkumdan boshqa turkumga ko'chadi. Shu ma'noda so'z yasash hodisasi so'zning grammatik jihatidan o'zgartiradigan hodisadir. Masalan, gul so'zi ot turkumiga xosligi uchun otga xos ko'plik qo'shimchasini olib turlanadi: gullar, gullarning, gullarga kabi. Bu so'zga fe'l yasovchi -la qo'shimchasi qo'shilganda hosil bo'lgan so'z ko'plik va kelishik qo'shimchalarini olmaydi, turlanmaydi, balki tuslanadi. Chunki bu holatda so'z grammatik jihatdan o'zgarib, bir kategoriyadan boshqa kategoriyaga o'tadi. Bir turkumdan boshqa turkumga o'tganda so'zlarda hosil bo'ladigan o'zgarishlar kategorial o'zgarishlar deyiladi<sup>1</sup>. Masalan, tasodifan so'zining o'zagi (tasodif) ot, unga yasovchi -an qo'shimchasi qo'shilganda so'z boshqa kategoriyaga ko'chdi, ya'ni kategoriya o'zgaradi. Uzumzor so'zidagi yasovchi -zor qo'shimchasi otdan ot yasagan. Bunda kategoriya o'zgarmagan. So'z yasalishi bilan bog'liq ravishda so'zning lug'aviy va grammatik ma'nolari ham o'zgarishi murnkin. So'z yasalish til uchun ijobiy hodisadir. U tilni lug'aviy jihatdan boyituvchi manbalardan biridir. So'z yasash tildagi boshqa sohalar bilan, xususan, lug'at va grammatika bilan uzviy bog'liq. Chunonchi, yasama so'z avval tilda mavjud bo'lgan lug'aviy vositalardan hosil bo'ladi. Masalan, tilde kitob, chiroy so'zlari mavjudligi uchun shu so'zlar asosida kitobxon, chiroyli kabi so'zlar yasalgan. So'z yasalishi asosida so'z ma'nosi o'zgaradi, yangi ma'noli so'z hosil bo'ladi. Bu holat so'z yasalishi bilan leksikologiya orasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Ma'lumki, so'z yasalishida ko'pincha qo'shimchalar ishtirok etadi, yangi yasama bir turkumdan boshqa turkumga ko'chadi. Bu holat so'z yasalishining grammatika bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi. So'z yasalishi natijasida so'zning shakli o'zgaradi. Yangi ma'no bilan birgalikda yangi shakl vujudga keladi. Tarixiy so'z yasalishida yasama so'zning shakli va ma'nosiga mos qolip mavjud bo'lmaydi. Bu maxsus

<sup>1</sup>Sayfullayeva R.R , Mengliyev B.R Hozirgi o'zbek adabiy tili .o'quv qo'llanma.Toshkent,2006. 391-b

tekshirishlar natijasida aniqlanadi. Masalan, qishloq, ovloq so'zlarining ma'nosini ularning tashkil etuvchilari va derivatsion qoliplari asosida keltirib chiqarib bo'lmaydi. Chunki ular tarixiy yasalmalardir. Qorovul, yasovul, silliq so'zlarida ham shu hol kuzatiladi. Har qanday so'z so'z yasash qoliplari asosida hosil qilinadi. Hosila lisoniylashib, o'z qolipidan uzilib ketsa ham, unda bilinar-bilinmas qolip bilan (agar qolip yashovchan bo'lsa) bog'lanishlar baribir saqlanib qoladi. So'z yasash qolipi ikki uzvdan iborat bo'ladi: qolipning shakliy tomoni va qolipning mazmuniy tomoni. Yasama so'zda ana shu ikki jihat tajallilanaadi. Yasalma shaklan va mazmunan ana shu qolipga muvofiq kelsa, uni shu qolip hosilasi sifatida qarash mumkin. Masalan, kitobchi so'zida mazkur qolipning izlari bor. Lekin xabarchi so'zida qolipning mazmuniy tomoni aks etmagan. Demak, bu leksema ushbu qolip mahsuli emas. Tilda mavjud bo'lgan so'z (yoki so'zlar, so'z shakllar negizida ma'lum usullar bilan yangi ma'nodagi so'zlarni hosil qilish so'z yasalishi deyiladi. O'zbek tilida so'z yasalishining affiksatsiya, kompozitsiya, fonetik, semantik, abbreviatsiya kabi usullari bo'lib, shulardan affiksatsiya va kompozitsiya usullari asosiy va yetakchi usullar hisoblanadi. So'zga so'z yasovchi affiks qo'shish bilan yangi so'z hosil qilish affiksatsiya usuli deyiladi. Masalan, paxtakor, sinfdosh, quvonch, do'stlik, ochiq, tirishqoq, serjilo, ilmiy, o'yla, kengay, shodlan, tinchi, tasodifan, oqilona, ko'pincha, ertalab va boshqalar. So'z yasovchi affikslar o'zbek. tilida asosan suffiks tarzida qo'llanib, so'z o'zagidan so'ng qo'shilib keladi. Ba'zan bunday affikslar o'zak oldiga prefix tarzida qo'shilib, yangi ma'nodagi so'z yasashi mumkin. Masalan, serhosil, serunum, badavlat, ba'mani, beminnat, beg'araz, noo'rin, nohaq, badfe'l, badbashara va h.k. O'zbek tilida so'z yasovchi affikslardan tashqari, o'z xususiyatlari bilan affikslarga juda yaqin turadigan xona, noma, obod kabi so'z-affikslar ham mavjud. Bunday so'z-affikslar tilshunoslikda affiksoidlar deb ham yuritiladi: ishxona, mehmonxona, oshxona, qabulxona, tabriknoma, Xalqobod, Yangiobod. Birdan ortiq mustaqil ma'noli so'z yoki so'z shakllarining qo'shiluvi, birikuvi orqali yangi so'z yasash kompozitsiya usuli bilan so'z yasash deyiladi. Bu usul bilan qo'shma, ayrim juft so'zlar hosil qilinadi. Masalan, guldasta, gultojixo'roz, asalari, tomorqa, xushfe'l, rahmdil, olijanob, hozirjavob, havorang, e'lon qilmoq, rad etmoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, har gal, yonma-yon, zo'r-bazo'r, ketma-ket va boshqalar.

Bu usulga ko'ra so'zda fonetik o'zgarish yuzberib, yangi so'z hosil qilinadi. Chunonchi, so'z urg'usining o'rmini almashtirish natijasida boshqa-boshqa so'z turkumiga doir so'zlar hosil bo'lishi mumkin: yo'zma fe'l, yozma sifat, su'zma fe'l, suzmaot, fizikot, fizik sifat, akademik ot, akademik - sifat va b. Semantik usulga binoan, so'z ma'nosida o'zgarish ro'y berib, ma'no boshqa-boshqa, shaklan o'xshash yangi so'z hosil bo'ladi: kun sutkaning yorug' qismi, kun quyosh, planeta; ko'k osmon, ko'k havorangga o'xshash rang, bir son, birga, birdan, birda ravish. "Fonetik va semantik usul hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan nofaol tarixiy so'z yasash usullari deb qaraladi. Abbreviatsiya usuliga ko'ra, bir butun holda qo'llanadigan to'g'ri ma'noli turg'un birikmalarning qismlari har xil yo'l bilan qisqartirilib so'z hosil qilinadi. Bu usul rus tilidan kirgan bo'lib, qisqartma otlar shu usulda yasaladi: BMT Birlashgan Millatlar Tashkiloti, MDH Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, ATS - Avtomatik telefon stantsiyasi, akadem litsey akademik litsey va b. Yasama so'zlarni so'z yasalish qolipiga e'tibor qaratadigan bo'lsak: yasama so'zlar nutqiy ham, lisoniy ham bo'lishi mumkin. Fikrimizni dalillash uchun quyidagi so'zlarni tahlilga tortaylik: paxtakor, ishchi, kitobchi, domladosh, aqlli, daftarchi, sharsimon, uysimon. So'zlarni ikk iguruhga ajratamiz: 1) paxtakor, ishchi, aqlli, sharsimon; 2) kitobchi, domladosh, daftarchi, uysimon. Har ikkala guruh so'zlari ham yasama so'zlar hisoblanadi. Biroq ulardan birinchisi qo'llash uchun qulayligi, o'zbek tilida so'zlovchi va tinglovchilarning unga odatlanganligi, shuningdek, keng iste'molliligi bilan xarakterlansa, ikkinchi guruh so'zlari

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON,2024

unchalik qulay emasligi, kam iste'molliligi, favquloddaligi bilan birinchi guruh so'zlaridan ajralib turadi<sup>2</sup>”

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasaliş tizimi. Toshkent, "O'qituvchi" NMIU, 2007. 168  
2.Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqieva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006, 391-b
2. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2005 B.Mengliyev, O'. Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent.2007.
3. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Buxoro, 2001 S.Rahimov, B.Umurqulov, A.Eshonqulova. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent,2001 yil
4. S.Rahimov, B.Umurqulov. Hozirgi o'zbek tili. T., 2003.

---

<sup>2</sup> Hojiyev A.O'zbek tili so'z yasaliş tizimi Toshkent , o'qituvchi NMIU 2007.286-b